



## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

*Xurramova Dilrabo Alisher qizi*

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallahsga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishslashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh beraoladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib topdirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yakuniy bosqichi talablari asosida ta'lim oluvchilarining mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyatga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassisning o'z bilimi va hayotiy tajribalarini oshirib borishi unda shaxsiy xislatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq. Ana shunday xislatlarni shakllantirishda mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad auditoriya mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilim va malakalarni mustahkamlash, yangilarini o'zlashtirish va ijodiy ishslash malakasini tarkib toptirishdan iboratdir[2].

Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so'ngi faoliyati faolligini tashkil etishga yo'naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas'uliyatni his qilishni ta'min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Mustaqil ta'lim ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi asosida amalga oshadi. O'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirish, ta'lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o'quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs-munozaralarda faol qatnashish, o'z fikr- mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba – bo'lajak mutaxassis olida turgan dolzarb vazifa



hisoblanadi. Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini nomoyon etadigan ma’naviy – kasbiy sifatidir.

Fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo‘lmish “Avesto” da ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan. Sharqning buyuk allomalari bo‘lmish Al-Buxoriy, At-Termiziyy, Burxoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa’diy Sherazi, Alisher Navoiy, Bobur, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ijodiy faoliyatida bu borada chuqur fikr-mulohazalar yuritilgan. Mustaqil ta’lim va uning ma’naviy-kasbiy mohiyati bo‘yicha konseptual yondashuvlari va metodikasini D.Krotval (AQSH), N.Saidahmedov, O’.Tolipov, X.To‘raqulov, M.Quronov (O‘zbekiston) va boshqalarning ishlarida bayon etilgan. Ammo mustaqil ta’limga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar bugungi islohotlar talabi darajasida to‘laqonli o‘z yechimini topolgan emas. Talabalarning mustaqil ta’limini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ta’lim prinsiplari, metodiksi va qonuniyatlar hamda uni amalgaga oshiruvchi interfaol metodlar metodikasi to‘liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarni generatsiyalash hamda uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G‘oyalarni integratsiyasi jarayonida mustaqil ta’lim texnologiyasining o‘rni hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Shunga ko‘ra biz tomondan olib borilayotgan mustaqil ta’lim va uni tashkil etish metodikasining maqsadi: ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq mustaqil ta’lim texnologiyasi assosida talabalarning erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g‘oyalarni samarador~ 94 ~ligini kafolatlovchi ta’lim mazmunini, mohiyatini tashkil etish va takomillashtirishga erishishdan iboratdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagи «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnomasi to‘g‘risida»gi 286-sonli buyrug‘i.

2. Xusainov R. Kasb-hunar kollejlarida mustaqil ta’limni tashkil etishning ahamiyati. «Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini takomillashtirish- da oliy ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalar». Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalar to‘plami. – T.: TDTU, 2015